

# Akademik litseyda bilim va zakovatni sinovdan o'tkazadigan ajoyib intellektual bellashuv "Yosh Kitobxon" ko'rik tanlovi tashkil etildi!

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida bilim va zakovatni sinovdan o'tkazadigan ajoyib **intellektual bellashuv "Yosh Kitobxon" ko'rik tanlovi tashkil etildi!** Ushbu ko'rik tanlov **Everest, Tafakkur, hamda Ma'rifat jamoalari** ishtirokida keskin va qiziqarli, bahs va munozaraga boy tarzda bo'lib o'tdi.

***Zakovat maydonida o'zining teran fikrlashi va bilimdonligi bilan Tafakkur jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib, 1-o'rin uchun ajratilgan 500ming so'mlik sovrinni qo'lga kiritishdi! Ma'rifat jamoasi 2-o'rinni egallab, 300ming so'mlik sovrinni qo'lga kiritishdi. Everest jamoasi esa 3-o'rinni qo'lga kiritib, 200ming so'mlik sovrin egasiga aylanishdi. Musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlar pul mukofotlari, diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar!***

Bu bellashuv barchaga bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun ajoyib maktab vazifasini o'tadi.













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati